

SHAXS MULOQOT MADANIYATINING SHAKLLANISHIDA MANTIQNING
O’RNI

Normatov Sanjar Abdug’ani o’g’li

Tayanch doktorant

Jizzax davlat pedagogika universiteti; Jizzax, O’zbekiston

sanjarnormatov2991@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada shaxs muloqot madaniyatining shakllanishida mantiqning tutgan o’rni ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Shuningdek, mantiqning shaxsning nutq madaniyati va shu bilan birga ijtimoiy munosabatlar tasiri falsafiy jihatdan ochib beriladi. Tadqiqot natijasida mantiqiy tafakkurni rivojlanishi bevosita shaxs muloqot madaniyatini yuksaltirishning muhim sharti ekanligi asoslanadi.*

Kalit so’zlar: *shaxs, muloqot madaniyati, mantiq, mantiqiy tafakkur, nutq madaniyati, kommunikatsiya, tanqidiy fikrlash, argumentatsiya, dalillash, bahs-munozara, ijtimoiy munosabatlar, fikr izchilligi.*

Jumladan insonlararo munosabatda turli xil nizolar, to’qnashuvlar va baxs-munozaralar yuzaga keladi. Bu ziddiyatlarda ikki guruhning yoki shaxslarning bir-birlariga o’zaro qarama-qarshiligini ko’rishimiz mumkin. Ayni shu holatda mantiqan ikki tomon manfaatlarini hisobga olib konstruktiv muloqot o’rnatish juda muhimdir. Bu haqda Ullmann Margalit “Mantiqiy fikrlash insonlarni to’g’ri qaror qabul qilishga chorlagan holda o’zaro muloqot davomida dushmanlik va qarama qarshilikdan uzoqlashish va mojarolarni oqilonalik va donolik asosida yechimini topishdir”¹ deb izohlaydi. Bizningcha barcha inson qanchalik mantiqqa asosan fikrlamasin ba’zi munozaralarda yagona yechim topilmaydi. Shu sababli bu insonni urushlarga yetaklaydi. Aqlimiz va mantiqimiz bu narsani xato deb hisoblasada bazi hollarda arzimagan sabablar tufayli juda ko’plab insonlarni qoni to’kildi. Shaxs sifatida o’ylab qaralsa bu urush faqat ayrim guruhlar manfaatini o’zida ifoda etsada bu qurbonliklar maqsadni oqlamaydi shu sababli ham har qanday nizolarning sababini o’rganib uning asosini tahlil qilish albatta ikki tomon uchun ham o’zaro yechimini topishga ko’mak beradi. Bunda albatta konstruktiv ruhdagi mantiy asoslarga tayangan muloqot insonga yordam beradi.

Bu yerda mantiqiy tafakkurda insoniy qadriyatlarining aks etishi ham muhim o’rin egallaydi. Bu haqda R.Arnett va J.Fritz quyidagicha fikr bildiradi. “Shaxs insoniy munosabatlarida mantiqiy fikrlash uni ishonch va hurmatga asoslangan muloqotni yo’lga qo’yishga sabab bo’ladi”². Haqiqatdan ham insonni biror narsaga yo’naltirmoqchi bo’lsangiz majburlash yoki buyruq berish orqali muammoning yechimini topib bo’lmaydi. Avvalo bunda biz muloqot madaniyatiga amal qilgan holda, mantiqiy asoslarni keltirib

¹ Ullmann-Margalit, E. (2019). *Riddles of conflict*. Oxford University Press.

² Arnett, R. C., & Fritz, J. M. (2019). *Communication ethics literacy: Dialogue and difference*. Sage Publications. Pp. 52-60.

to‘g‘ri yo‘lga boshlash maqsadga muvofiq hisoblendi. Bu jarayonda quyidagi usullardan foydalanish mumkin.

Birinchiidan: Muloqot davomida tinglash muhimdir. Bu boshqalarning nuqtai nazarini tushunishga yordam beradi. Biz tinglaganimizda, odamning so‘zlariga quloq solishimiz, ma’nosini tushunishga harakat qilishimiz va o‘zimiz uchun kerakli savollar berishimiz lozim.

Ikkinchiidan: Biz o‘z fikrimizni aniq bayon qila olishimiz kerak. Muloqotda suhbatdosh uchun tushunarsiz bo‘lgan jargon so‘zlarni yoki bo‘lmasa texnik tushunchalarni ishlatishdan qochmoo‘imiz darkor.

Shuningdek uning vaqtini hisobga olib ortiqcha so‘zlarni so‘zlashdan o‘zimizni tiyishimiz kerak. Bu albatta muloqot jarayonida to‘g‘ri yondoshuvni tanlashga yordam beradi.

Shaxs muloqotida paralogizmning qo‘llanishi jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Propaganda ko‘pincha paralogizmlarga asoslanadi. Siyosiy liderlarga bo‘lgan ishonchni manipulyatsiya qilish uchun sabab-oqibat bog‘liqligini buzish, yolg‘on statistika yoki shaxsiy hujumlar qo‘llaniladi. Masalan, ba’zi siyosiy kompaniyalarda raqib nomzodni “xalq dushmani” deb e‘lon qilish orqali uning dasturiga qaramay, shaxsiy obro‘cini yo‘q qilishga harakat qilinadi

Sofizmning ijtimoiy oqibatlari zamonaviy jamiyatda xavflidir. Siyosiy manipulyatsiya ko‘pincha sofistika usullarga asoslanadi. Liderlarga bo‘lgan ishonchni qo‘lga kiritish, raqiblarni haqorat qilish yoki aholi fikrini boshqarish uchun mantiqiy aldashlar qo‘llaniladi. Masalan, ba’zi siyosiy reklama kompaniyalarida statistik ma’lumotlar noto‘g‘ri taqdim etiladi bu foizlarni haqiqiy natija bilan tog‘ri kelmaydigan shaklda ko‘rsatishda nomoyon bo‘ladi.

Reklama sohasida ham sofizmlar keng qo‘llaniladi. Masalan, “90% shifokorlar tavsiya qiladi” degan jumla noaniq: qaysi shifokorlar, qancha shifokor so‘raldi, nimani tavsiya qiladi – bu savollar ochiq qoldiriladi. Natijada iste‘molchi mantiqsiz xulosaga keladi.

Isbotlash (argumentatsiya) – mantiq nazariyasida biror tezisning to‘g‘riligini mantiqiy dalillar orqali asoslash jarayonidir. Isbotlash tarkibi uchta asosiy unsurdan iborat: tezis (isbotlanishi kerak bo‘lgan fikr), argumentlar (tezisni asoslovchi dalillar) va demonstratsiya (tezis va argumentlar o‘rtasidagi mantiqiy bo‘lanish). Arastu o‘zining "Analitika" asarida isbotlashning ilmiy usullarini tizimlashtirgan va sillogizm (qiyos) usulini ishlab chiqqan. Sillogizm – ikkita muqaddima (premissa)dan xulosa chiqarishning mantiqiy shakli. Masalan:

Barcha insonlar o‘ladi (katta muqaddima)

Suqrot inson (kichik muqaddima)

Demak, Suqrot o‘ladi (xulosa)

Bu mantiqiy struktura muloqotda dalillarning qat‘iyligini ta‘minlaydi.

Rad etish (refutatsiya) — qarama-qarshi fikrning noto‘g‘riligini isbotlash jarayonidir.

Karl Popperring falsifikatsiya nazariyasi ilmiy bilimlarning rivojlanishida rad etishning

muhim rolini ko‘rsatdi³. Popperga ko‘ra, ilmiy nazariyalar aslo yakuniy tarzda tasdiqlanmaydi, balki tajriba orqali rad etilishi mumkin. Agar nazariya tajribaga zid kelsa, u noto‘g‘ri deb hisoblanadi. Bu prinsip muloqotda ham qo‘llaniladi: qarshi tomonning dalillarini mantiqiy tahlil qilish va ularning zaifliklarini ko‘rsatish orqali o‘z pozitsiyangizni mustahkamlash mumkin.

Muloqot madaniyatida isbotlash va rad etishning ijtimoiy-falsafiy ahamiyati katta. Demokratik jamiyatda ochiq munozaralar, parlament muhokamalar va ilmiy diskussiyalar ushbu mantiqiy usullarga asoslanadi. Biroq, zamonaviy mediada ko‘pincha hissiyot va stereotiplarga tayangan fikrlar mantiqiy dalillarsiz tarqalmoqda. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda tarqaladigan soxta yangiliklar (fake news) ko‘pincha hissiy ta‘sir uchun mo‘ljallangan bo‘lib, mantiqiy isbotdan mahrum. Bu esa jamiyatda dezinformatsiyaga, siyosiy qutblanishga va ijtimoiy ziddiyatlarning kuchayishiga olib keladi. Bu xolat muloqot jarayonida sofizm va paralagizm kabi mantiqsiz mulohazalarni yuzaga keltiradi.

Paralogizm - mantiqiy xato, ya‘ni qasddan emas, balki bilmaslik yoki e‘tiborsizlik natijasida sodir etilgan noto‘g‘ri mantiqiy xulosadir. Immanuel Kant o‘zining “Sof aqlning tanqidi” asarida paralogizmlarni ilk marta tizimli tahlil qilgan va ularni "transsendental paralogizmlar" deb atagan⁴. Kantga ko‘ra, paralogizmlar odamlarning fikrlash qobiliyatining cheklanganligi natijasida yuzaga keladi, ular bilmagan holda mantiqiy qoidalarni buzadilar.

Sofizm – qasddan, maqsadga yo‘naltirilgan holda mantiqiy xato qilib, noto‘g‘ri xulosani to‘g‘ri qilib ko‘rsatish usuli. Zamonaviy raqamli muloqotda sofizmlar yanada keng tarqalmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda “clickbait” (bosish uchun aldash) usuli sofistlik printsiplarga asoslanadi. Sensatsion sarlavha orqali foydalanuvchini chalg‘itib, haqiqatda boshqa ma‘lumot taqdim etiladi. Masalan, “Siz buni bilmasligingizga ishonmayman!” “Taniqli honada Yulduz Usmonova vafot ettimi?” kabi sarlavhalar foydalanuvchini tezda o‘ziga tortadi, ammo uning mazmunida haqiqat yo‘q. Arastu o‘zining “Organon” asarida ayniyat qonuning ahamiyatini ko‘rsatib o‘tadi “Biror narsa o‘zi-o‘ziga teng bo‘lmasa, u haqida hech qanday bilimga erishib bo‘lmaydi”⁵.

Shuningdek shaxs hayoti davomida muhim qaror qabul qilmoqchi bo‘lsa mantiqiy tafakkurga tayanishi lozim. Mantiqiy fikrlagan inson qaror qabul qilishda hamma tamonini hisobga oladi, vaziyatni obyektiv va xolis baholaydi. Eng muhimi har bir qarorning ijobiy va salbiy jihatlarini hisobga olib keyin o‘z fikrini bayon qiladi. Pennycook, G., Fugelsan J. va D.Koehlerlarning⁶ tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki kuchli tanqidiy fikrlash qobiliyati insonni to‘g‘ri qaror qabul qilishida yordam beruvchi fazilat hisoblandi. Bizningcha, faqat qaror qabul qilish bu jarayonda hal qiluvchi ahamiyat kasb etmaydi. Unda muloqot uslubini ham to‘g‘ri tanlash muhimdir.

³ Поппер, К. Р. (2004). *Логика научного открытия*. М.: Республика. 464 с. С. 234–235.

⁴ Immanuel Kant. *Critique of Pure Reason*. Ed. and trans. by P. Guyer, A. W. Wood. Cambridge: Cambridge University Press, 2013. Pp. 68–93.

⁵ Arastu (Aristotel). *Metafizika*. Toshkent: Sharq, 2012. — 368 b., 127-bet.

⁶ Pennycook, G., Fugelsang, J. A., & Koehler, D. J. (2015). Everyday consequences of analytic thinking. *Current Directions in Psychological Science*, 24(6), 425-432.

Shuningdek shaxs hayoti davomida muhim qaror qabul qilmoqchi bo‘lsa mantiqiy tafakkurga tayanishi lozim. Mantiqiy fikrlagan inson qaror qabul qilishda hamma tamonini hisobga oladi, vaziyatni obyektiv va xolis baholaydi. Eng muhimi har bir qarorning ijobiy va salbiy jihatlarini hisobga olib keyin o‘z fikrini bayon qiladi. Pennycook, G., Fugelsang J. va D.Koehlerlarning⁷ tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki kuchli tanqidiy fikrlash qobiliyati insonni to‘g‘ri qaror qabul qilishida yordam beruvchi fazilat hisoblandi. Bizningcha, faqat qaror qabul qilish bu jarayonda hal qiluvchi ahamiyat kasb etmaydi. Unda muloqot uslubini ham to‘g‘ri tanlash muhimdir.

Zamonaviy raqamli muloqot sharoitida ushbu muammolar yanada keskinlashmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlar axborot almashish tezligini oshirdi, ammo mantiqiy fikrlash sifatini kamaytirdi. “Echo chamber” (aks-sado xonasi) effekti – foydalanuvchilar faqat o‘zlariga yoqqan fikrlarni ko‘rishlari – tanqidiy fikrlashni susaytiradi va paralogizm hamda sofizmlarning tarqalishiga yordam beradi⁸.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

- 1) Ullmann-Margalit, E. (2019). *Riddles of conflict*. Oxford University Press.
- 2) Arnett, R. C., & Fritz, J. M. (2019). *Communication ethics literacy: Dialogue and difference*. Sage Publications. Pp. 52–60.
- 3) Поппер, К. Р. (2004). *Логика научного открытия*. М.: Республика. 464 с. С. 234–235.
- 4) Immanuel Kant. *Critique of Pure Reason*. Ed. and trans. by P. Guyer, A. W. Wood. Cambridge: Cambridge University Press, 2013. Pp. 68–93.
- 5) Arastu (Aristotel). *Metafizika*. Toshkent: Sharq, 2012. — 368 b., 127-bet.
- 6) Pennycook, G., Fugelsang, J. A., & Koehler, D. J. (2015). Everyday consequences of analytic thinking. *Current Directions in Psychological Science*, 24(6), 425-432.
- 7) ¹Pennycook, G., Fugelsang, J. A., & Koehler, D. J. (2015). Everyday consequences of analytic thinking. *Current Directions in Psychological Science*, 24(6), 425-432.

⁷ Pennycook, G., Fugelsang, J. A., & Koehler, D. J. (2015). Everyday consequences of analytic thinking. *Current Directions in Psychological Science*, 24(6), 425-432.

⁸ Pariser E. *The Filter Bubble: What the Internet Is Hiding from You*. London: Penguin Books, 2011. — 304 p., 78-82-betlar.